



## YASHIRIN IQTISODIYOTNI JILOVLASHDA SOLIQ SIYOSATI MEXANIZMLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Toshkent kimyo texnologiya institute Yangiyer filiali o'qituvchisi*

***Berdiqulova Sevinch Toxir qizi***

*Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali 2-bosqich talabasi*

***Ismoilova Intizor Mansurbek qizi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nafaqat mamlakatimizda, balki boshqa davlatlarda ham yashirin iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida soliq siyosatidan foydalanish, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va yashirin iqtisodiyot darajalari haqida muhim ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** YaIM, xufiyona iqtisodiyot, OECD mamlakatlari, "pulni yuvish", yashirin sektor, qora bozor, deklaratsiya

**Kirish.** Mamlakatda soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash va bozorda halol raqobat muhitini shakllantirishda samarali soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq nazoratining samaradorligi esa soliq to'lovchilar va soliq obyektlarini to'liq qamrab olinganligi, soliq majburiyatlari hisobini to'g'ri va aniq yuritilishi hamda soliq nazoratini muvafaqqiyatli amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari va bevosita rahnamoligida iqtisodiyotni rivojlantirish va investisiyalarni faol jalb qilish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi



Prezidentining 2020 yil 2-martdagi PF-5953-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “Yashirin iqtisodiyot”ning ulushini qisqartirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

**Asosiy qism.** Yashirin iqtisodiyot - bu qonuniy yoki noqonuniy iqtisodiy faoliyatlar bo‘lib, ular davlat organlaridan qastdan yashiriladi, bu orqali soliqlardan qochish, qonunchilik talablariga rioya qilmaslik yoki boshqa huquqiy majburiyatlarni bajarmaslik maqsad qilingan. Yashirin iqtisodiyotga qonuniy mahsulotlar va xizmatlardan olingan daromadni hisobga olmaslik, noqonuniy faoliyatlar (masalan, kontrabanda yoki giyohvand moddalar savdosi), hamda norasmiy ishlash tartiblari kiradi, bu yerda xodimlar - rasmiy hisobdan tashqari pul olishadi. Yashirin iqtisodiyot - bu davlatning nazoratidan chetda qolgan iqtisodiy faoliyatlarning murakkab to‘plami bo‘lib, qisqa muddatda ayrim foyda keltirishi mumkin, lekin uning salbiy ta’siri butun jamiyat va davlat uchun jiddiy bo‘ladi. Yashirin iqtisodiyot, shuningdek, norasmiy iqtisodiyot, yoki yashirin sektor deb ham ataladi. Bu iqtisodiyot davlat nazorati va soliqqa tortish tizimidan tashqarida ishlaydi. Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma’muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida: Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha maxsus komissiya, hududiy komissiyalar tashkil etilgan. Mamlakatda “xufiyona iqtisodiyot” darajasining yuqoriligi poraxo‘rlik darajasining ham yuqori darajada bo‘lishiga zamin yaratadi. Past daromadli davlatlarda “xufiyona iqtisodiyot” ko‘lami oshishi bilan korrupsiya darajasi ham oshishi aniqlangan. Shuningdek, “yashirin iqtisodiyot” va inflyatsiya bir-biri bilan musbat bog‘liq, soliq yuki bilan



esa manfiy bog‘liqlik mavjud. “Yashirin iqtisodiyot” bilan norasmiy bandlik tahlili rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy band fuqarolar soni rasmiy mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar sonidan katta ekanligini ko‘rsatadi.

2024-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotdan davlat budjetiga 30 trln so‘m, yalpi ichki mahsulotga 135 trln so‘m zarar yetkazilgan. Deyarli 11 mingta korxona (41%) hisobotlarida faqat 1 kishini ishchi sifatida ko‘rsatgan. “Yashirin iqtisodiyot to‘g‘ri ishlayotgan tadbirkorlarga katta to‘siq bo‘lyapti”. Davlat rahbari e‘lon qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, xizmatlarda 140 trillion so‘m, qurilishda 50 trln so‘m, sanoatda 40 trln so‘m mahsulot “soyada” qolmoqda. Agar ular joyida bo‘lsa, bu orqali **yalpi ichki mahsulotga 135 trln so‘m, davlat budjetiga esa 30 trillion so‘m miqdorida tushum qilish mumkin.** 27 mingta qurilish korxonasining **41 foizi yoki 10 947 mingtasi hisobotida faqat bir nafar ishchisini rasmiy xodim sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa**, shundan 2249 tasi Toshkent shahrida, 1087 tasi Toshkent viloyatida, 837 tasi Samarqand shahrida va hokazo. Ushbu korxonalar tomonidan o‘tgan yil davomida 4 trln so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifasi etib belgilangan:

- biznesning “soyadan” chiqishini rag‘batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, soliq rejimini soddalashtirish hamda naqdsiz to‘lovlarni kengaytirish choralari ko‘rish;
- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni shakllangan biznes yuritish amaliyotiga moslashtirish;
- soliq va bojxona ma‘muriyatchiligi vositalari hisob va tushumlarning to‘liqligiga, shu jumladan soliqlardan bo‘yin tovlagan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash va javobgarlikka tortishga qaratilishini ta‘minlash;



-yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini “pulni yuvish”ga qarshi kurashish sohasidagi tashkilotlar faoliyati bilan muvofiqlashtirish;

-ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish, jamiyatda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish, legal biznes yuritishning nufuzini oshirish.

O'zbekistonda 2024-yil 1-maydan boshlab quyidagilar joriy etilgan:

- qurilish korxonalarini tomonidan jismoniy shaxslarga ko'chmas mulk obektlari realizatsiya qilinganda soliq bazasini aniqlashda har bir kvadrat metr uchun minimal miqdorlardan kelib chiqib hisoblash;
- uy-joy, ko'chmas mulk va avtotransport vositalari sotuvini faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida amalga oshirish. Bunda jismoniy shaxslar tomonidan mazkur oldi-sotdi shartnomalari bank ma'lumotlari asosida, yuridik shaxslar tomonidan esa elektron hisobvaraqa-faktura orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning amalga oshirilganini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lgan taqdirda notarial rasmiylashtiriladi. Shuningdek, tovar va xizmatlar narxi 3000 dollardan oshiq bo'lganda, to'lovlarni faqat naqd pulsiz shaklda amalga oshirish taklif etilmoqda. Ulgurji savdoni ham to'liq naqd pulsiz hisob-kitoblarga o'tkazish rejalashtirilgan.

2024 yil 1 iyulga qadar:

- shaharsozlik normalari va qoidalariga asoslangan qurilish obekti uchun qurilish materiallari va sarf-xarajatlarining cheklangan o'rtacha miqdorini qat'iy belgilash tizimini joriy etish;
- “POS” terminallar o'rnatish xarajatlarini foyda va aylanmadan olinadigan soliq bazasidan chegirib tashlash;



- “POS” terminallar orqali amalga oshirilgan tovar aylanmalariga nisbatan foyda va aylanmadan olinadigan soliq stavkalarini 5 foizga kamaytirish rejalashtirilgan edi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish barqaror iqtisodiy o‘shish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga intilayotgan hukumatlar uchun dolzarb masalaga aylandi. Korporativ yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning asosiy vositalaridan biri soliq islohotidir. Soliq siyosatini qayta ko‘rib chiqish va qayta qurish orqali hukumatlar biznesni norasmiy sektordan rasmiy sektorga o‘tishni rag‘batlantirishi mumkin. Soliq stavkalarini pasaytirish, soliq tizimlarini soddalashtirish va samarali soliq yig‘ish mexanizmlarini joriy etish qonunchilikka rioya qilishni rag‘batlantirishi va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishi mumkin. Bundan tashqari, soddalashtirilgan soliq ma’muriyati daromadlarni ishlab chiqarish salohiyatini oshirishi, hukumatlarni infratuzilma, davlat xizmatlari va ijtimoiy ta’minot dasturlariga sarmoya kiritish uchun zarur resurslar bilan ta’minlashi mumkin. Soliq islohoti chora-tadbirlari, shuningdek, yuqori soliq stavkalari, murakkab soliq tuzilmalari va majburiyatlarni bajarish bo'yicha og'ir talablar kabi yashirin iqtisodiyotning asosiy sabablarini bartaraf etishi mumkin. Soliq stavkalarini pasaytirish va soliq qoidalarini soddalashtirish soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun rag‘batlarni kamaytirishi va biznesni o‘z daromadlarini deklaratsiyalash va qonuniy faoliyat yuritishga undashi mumkin.

### **Sanoat mamlakatlarida 2014-2024 yillardagi yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi<sup>1</sup>**

|             |      |
|-------------|------|
| Amerika     | 5.8  |
| Shvetsariya | 6.2  |
| Germaniya   | 10.3 |

<sup>1</sup> <https://wol.iza.org/articles/the-shadow-economy-in-industrial-countries/long>



|             |      |
|-------------|------|
| Shvetsiya   | 12.0 |
| Portugaliya | 16.9 |
| Ispaniya    | 17.2 |
| Italiya     | 20.4 |
| Gretsiya    | 21.4 |

Hukumat tomonidan 2024-yildan boshlab budjetni konsolidatsiyalash uchun barcha choralar ko'rilayotgan bo'lib, joriy yilda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YaIMga nisbatan 4 foiz miqdorida saqlab turish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Davlat budjeti daromadlarini oshirish uchun o'rta muddatda soliq siyosati islohotlarini, shu jumladan, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish hisobiga soliq to'lovchilar qamrovini oshirish va qo'shimcha daromadlar manbasini yaratish, soliq-bojxona imtiyozlarini tanqidiy ko'rib chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy samara bermayotgan imtiyozlarni bekor qilish ishlari davom ettirilmoqda.

Yashirin iqtisodiyot ko'plab mamlakatlarda jamiyat va iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Odamlar yashirin iqtisodiyotda ishlash yoki odamlarni noqonuniy ishga joylashtirish orqali soliq va qonun hujjatlaridan bo'yin tovlaydi. Bir tomondan, bu tartibga solinmagan iqtisodiy faoliyat soliq tushumlarining kamayishiga va davlat tovarlari va xizmatlarining kamayishiga, soliq ma'naviyatining pasayishiga va soliqqa rioya qilmaslikka, nazorat xarajatlarining oshishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, iqtisodiy rivojlangan OECD mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga qaraganda ancha kichikdir. Shunga qaramay, ilg'or Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti mamlakatlari orasida ham katta tafovutlar mavjud. AQSH, Shveytsariya, Avstriya, Yaponiya va Yangi Zelandiyada yashirin iqtisodiyot rasmiy YaIMning 10% yoki undan kamini tashkil qilgan bo'lsa, Sharqiy Yevropa va ayrim Janubiy Yevropa mamlakatlarida (Gretsiya, Italiya, Portugaliya va Ispaniya) yashirin iqtisodiyot 20



foizni tashkil etadi. Rasmiy YaIMning % yoki undan ko‘prog‘i. Ammo ba’zi mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotlar hajmi ortib bormoqda. Yashirin iqtisodiyot, masalan, Germaniyada 9,6% dan 11,3% gacha (2024), Frantsiyada 12,5% dan 15% gacha, Italiyada 19,5% dan 21,6% gacha o'sdi.

**Yashirin iqtisodiyot darajasi (%), 2014-2024<sup>2</sup>**

|                        |      |
|------------------------|------|
| <i>Gretsiya</i>        | 21.4 |
| <i>Italiya</i>         | 20.4 |
| <i>Ispaniya</i>        | 17.2 |
| <i>Portugaliya</i>     | 16.9 |
| <i>Belgiya</i>         | 16.2 |
| <i>Fransiya</i>        | 13.2 |
| <i>Shvetsiya</i>       | 12.0 |
| <i>Norvegiya</i>       | 11.7 |
| <i>Finlandiya</i>      | 11.6 |
| <i>Buyuk Britaniya</i> | 10.4 |
| <i>Irlandiya</i>       | 10.4 |
| <i>Germaniya</i>       | 10.3 |
| <i>Kanada</i>          | 10.1 |
| <i>Australiya</i>      | 9.6  |
| <i>Yaponiya</i>        | 8.7  |
| <i>Nederlandiya</i>    | 8.5  |
| <i>Yangi Zelandiya</i> | 7.7  |
| <i>Austriya</i>        | 7.4  |
| <i>Shvetsariya</i>     | 6.2  |
| <i>AQSH</i>            | 5.8  |

<sup>2</sup> <https://wol.iza.org/articles/the-shadow-economy-in-industrial-countries/long>



Rivojlanayotgan yashirin iqtisodiyot rasmiy statistikani (ishsizlik, rasmiy ishchi kuchi, daromadlar, iste'mol bo'yicha) ishonchsiz qiladi. Ishonchsiz statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan siyosat va dasturlar nomaqbul va o'z-o'zidan mag'lub bo'lishi mumkin. Yashirin iqtisodiyotning o'sishi halokatli tsiklni boshlashi mumkin. Yashirin iqtisodiyotdagi operatsiyalar soliqqa tortilishdan qochadi, bu esa soliq tushumlarini boshqa holatlardan pastroq ushlab turishga olib keladi. Agar soliq solinadigan baza yoki soliqqa rioya qilish buzilgan bo'lsa, hukumatlar soliq stavkalarini oshirish orqali javob berishi mumkin, bu esa davlat sektoridagi byudjet cheklovlarini yanada yomonlashtiradigan yashirin iqtisodiyotga qo'shimcha parvozni rag'batlantirishi mumkin. (Boshqa tomondan, yashirin iqtisodiyotda olingan daromadning kamida uchdan ikki qismi darhol rasmiy iqtisodiyotga sarflanadi, bu esa rasmiy iqtisodiyotga sezilarli ijobiy rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.) O'sib borayotgan yashirin iqtisodiyot mahalliy va xorijiy ishchilarni rasmiy iqtisoddan uzoqlashtirish uchun kuchli turtki berishi mumkin.

**Xulosa.** Yashirin iqtisodiyot har qanday mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri bo'lib, u davlat byudjetiga tushumlarning kamayishi, makroiqtisodiy barqarorlikning buzilishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotda yashirin iqtisodiyotni jilovlashda soliq siyosati mexanizmlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi va quyidagi asosiy natijalarga erishildi.

Birinchidan, yashirin iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari orasida yuqori soliq yuklamasi, biznes muhitining tartibga solinishidagi murakkabliklar, korrupsiya va institutsional zaiflik kabi omillar mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun soliq siyosatini takomillashtirish va fiskal islohotlarni joriy etish zarur.



Ikkinchidan, ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, soliq siyosati mexanizmlari yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, **soliq stavkalarini optimallashtirish, soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, soliqlarni soddalashtirish va fiskal shaffoflikni ta'minlash** orqali tadbirkorlarni qonuniy iqtisodiy faoliyat yuritishga rag'batlantirish mumkin.

Uchinchidan, xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, **raqamli soliq ma'murchiligini rivojlantirish, fiskal monitoring tizimlarini kuchaytirish, soliq to'lovchilarni identifikatsiya qilishning zamonaviy usullaridan foydalanish** yashirin iqtisodiyotning oldini olishda samarali usul bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, soliq qonunchiligining barqarorligi va adolatliligi biznes subyektlarining soliqqa bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, O'zbekiston tajribasida fiskal islohotlar doirasida qabul qilingan soliq tizimining modernizatsiya choralari va elektron soliq boshqaruvi tizimining joriy etilishi yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim qadam bo'ldi. Biroq, hali ham tizimli muammolar va soliq siyosati mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, yashirin iqtisodiyotni jilovlashda **progressiv soliq tizimini joriy etish, soliqlarning ochiqligini oshirish, biznes uchun soliq yukini maqbullashtirish va soliq tushumlarining shaffofligini ta'minlash** asosiy strategik yo'nalishlar bo'lishi lozim. Ushbu yo'nalishlar orqali davlat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash va byudjet daromadlarini oshirishga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://ajee-journal.com/bring-on-the-the-light-reduction-of-the-corporate-shadow-economy-by-tax-reform>



2. [https://www.researchgate.net/publication/352681902\\_YASHIRIN\\_IQTISO\\_DIYOTNI\\_QISQARTIRISH\\_VA\\_UNGA\\_QARSHI\\_SAMARALI\\_KURASHISH\\_YOLLARI](https://www.researchgate.net/publication/352681902_YASHIRIN_IQTISO_DIYOTNI_QISQARTIRISH_VA_UNGA_QARSHI_SAMARALI_KURASHISH_YOLLARI)
3. <https://wol.iza.org/articles/the-shadow-economy-in-industrial-countries/long>
4. [Budjetnoma 2025-yil uchun.pdf](#)
5. <https://wol.iza.org/articles/the-shadow-economy-in-industrial-countries/long>
6. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/issues/issues30/>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/17/shadow-economy/>